MUSTAQILLIK YILLARIDA ARABLARNING MARKAZIY OSIYOGA BOSQINI HAQIDA TADQIQOTLAR TAHLILI

Xolmatov Shukurillo Ziyovidin o‘g‘li
Farg‘ona Davlat Universteti
Tarix fakulteti tayanch doktoranti
shukuillo2026@gmail.com
ORCID 0009-0003-3436-2405

Annotatsiya:
Mazkur maqolada Arab xalifaligi tomonidan Markaziy Osiyo istilosining o‘rganilish boshqichlari haqida va unga bag‘ishlangan ingliz tilida yaratilgan ilmiy adabiyotlar haqidagi ayrim fikr mulohazalar va tahlillar ilgari surilgan. Ana shunday olimalardan Edvard Rtveladze, B.A. Litvinsky, A.H.Jalilov, A.I. Kolesnikov, R.Frye,K.Bosvort,H.Kennedy, Shamsiddin Sirodjiddinovich Kamoliddinov, M.Ishoqov, U.Xalmuminov va boshqalarning e’tiborga molik fikrlari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Arab xalifaligi, Movarounnahr, O‘zbekiston, Edvard Rtveladze, UNESCO, Markaziy Osiyo, Qutayba ibn Muslim, "The Heritage of Central Asia","The Heritage of Central Asia",“Qadimgi yozma yodgorliklar”*

KIRISH.

So‘nggi yillarda mamlakatimiz tadqiqotchilari tomonidan vatanimiz tarixiga oid bo‘lgan g‘arb mualliflarining asarlarini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar olib borilmoqda.Ushbu davrda Arab xalifaligining Movarounnahrga oid siyosati, mustaqillik davrlarida o‘rganish yanada oshdi,asosan, tadqiqot olib borgan ingliz sharqshunoslarning asarlaridagi ma’lumotlar, mamlakatimiz tarixchi olimlari jamoasi tomonidan yaratilgan kompleks adabiyotlardan o‘rin oldi. Mustaqillik davridagi O‘zbekiston olimlari orasida arablarning Markaziy Osiyoga bosqini mavzusini ingliz tilidagi manbalardan foydalangan holda tadqiq qilganlar bor. Bu sohada faoliyat yuritgan olimlar asosan arxeologiya, tarix va sharqshunoslik yo‘nalishlarida ishlaydi, ular UNESCO loyihalari va xalqaro nashrlarda ishtirok etib, ingliz tilidagi adabiyotlarni,masalan, H.A.R. Gibb, Hyu Kennedy va boshqa tadqiqotchilarning asarlarini o‘rganishgan.[1]

ASOSIY QISM.

Mustaqillik yillarida arabalarning Markaziy Osiyoga bosqini haqida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borildi.Ana shunday olimalardan biri O‘zbekiston Fanlar Akademiyasining akademigi, taniqli arxeolog va tarixchi Edvard Rtveladze (1942-2021) hisoblanadi. U Markaziy Osiyo tarixini, jumladan, arab bosqinlari davrini tadqiq etgan. Rtveladze arab xalifaligining Mavarounnahrni zabt etishi, islomning tarqalishi va yangi madaniyat shakllanishi haqida yozgan. U ingliz tilidagi manbalardan foydalangan, chunki u xalqaro loyihalarda, masalan, UNESCOning "Markaziy Osiyo sivilizatsiyalari tarixi" seriyasida ishtirok etgan va inglizcha nashrlarda chop etilgan.

Rtveladze UNESCOning "History of Civilizations of Central Asia" seriyasida III jild: A.D. 250-750, "The Crossroads of Civilizations"deb nomlangan havola qilingan olim sifatida qatnashgan. Bu jildda arab bosqinlari haqidagi bo‘limlar,masalan,asarning 19-bobi: "The Arab Conquest", mualliflar B.A. Litvinsky, A.H. Jalilov, A.I. Kolesnikov mavjud bo‘lib, shuningdek, u o‘zining "Uzbekistan and Spain: Historical and Cultural

Contacts" asarida arab bosqinlari davridagi madaniy aloqalarni tahlil qilgan. Rtveladze 1991-yildan keyin ko‘plab xalqaro konferensiyalarda qatnashib, ingliz tilidagi tadqiqotlarni o‘zbek tarixshunosligiga integratsiya qilgan.[2]

Rtveladze o‘z tadqiqotlarida arab bosqinlari haqidagi klassik ingliz tilidagi asarlarni asosiy manba sifatida ishlatgan, ularni arxeologik topilmalar bilan solishtirgan va tanqid qilgan. U post-sovet davrida (1991-yildan keyin) bu manbalarga erkin kirish imkoniga ega bo‘lgan va ularni o‘zbek tarixshunosligiga kiritgan. Rtveladze ingliz sharqshonosi H.A.R.Gibbning "The Arab Conquests in Central Asia"(1923) kitobidan arab bosqinlarining dastlabki bosqichlari (VII asr oxiri - VIII asr boshi) haqida asosiy manba sifatida foydalangan. Kitobda arablarning Transoksaniyani (Mavarounnahr) zabt etishi, Qutayba ibn Muslimning yurishlari (706-712 yillar) va mahalliy qarshilik so‘g‘d va turkiy qabilalar tasvirlangan. Rtveladze bu asarni tahlil qilib, Gibbning arab manbalariga Tabariy, Balazuriy asoslangan ta'riflarini arxeologik dalillar masalan, Buxoro va Samarqand qazishmalari bilan solishtirgan va Gibbning "arab g‘alabasi madaniy assimilyatsiyaga olib keldi" degan fikrini qo‘llab-quvvatlagan, lekin mahalliy madaniyatning chidamliligini qo‘shimcha ta'kidlagan.[3]

Shuningdek, Rtveladze R.Fryening "The History of Ancient Iran" (1984) va "The Heritage of Central Asia" (1996) asarlarini arab bosqinlaridan oldingi va keyingi davrlarni bog‘lash uchun ishlatgan. Frye arablarning Eron va Markaziy Osiyoni zabt etishini Nihovand jangidagi mag‘lubiyati,(642 yil) Yazdgird III ning o‘limi,(651 yil)Sosoniylar imperiyasining zaifligi bilan izohlaydi. Rtveladze bu tahlilni qo‘llab-quvvatlab, arxeologik dalillarni Termiz va Toxariston tangalarini qo‘shgan va Fryening "arablar mahalliy elita bilan hamkorlik qilgan" degan fikrini kengaytirgan, bu esa islomning tarqalishini tezlashtirgan deb hisoblaydi.

Rtveladze ingliz tadqiqotchisi H.Kennedyning "The Armies of the Caliphs: Military and Society in the Early Islamic State" (1981) va "The Prophet and the Age of the Conquests" (1986) bu kitoblarini arab armiyasining strategiyasi va Markaziy Osiyodagi qarshiliklarni tahlil qilishda foydalangan. Kennedy arab bosqinlarini Transoksaniyaga birinchi yurishlar, 680-705 yillar,Umaviylar davridagi isyonlar, 720-728 yillar ijtimoiy-iqtisodiy kontekstda ko‘rib chiqadi. Rtveladze bu asarlarni tanqid qilib, Kennedyning arab manbalariga asoslangan ta'riflarini mahalliy arxeologik topilmalar (masalan, Poykend va Buxoro qal'alari) bilan to‘ldirgan va "arab g‘alabalari mahalliy iqtisodiyotni buzgan, lekin yangi savdo yo‘llarini ochgan" degan xulosani chiqargan.

Bundan tashqari Rtveladze ingliz sharqshunosi K.Bosvortning asarlarini arab bosqinlarining keyingi ta'siri Abbosiylar davri, VIII asr oxiri haqida ishlatgan. Boswort arablarning Seiston va Xurosonni zabt etishini (650-651 yillar) va mahalliy qarshilikni (masalan, al-Muqanna' isyoni, 776-780 yillar) tahlil qiladi. Rtveladze bu manbalarni o‘rganib, Bosvorthning "arablar mahalliy diniy va madaniy elementlarni o‘zlashtirgan" degan fikrini qo‘llab-quvvatlagan va uni o‘z arxeologik ishlarida (janubiy O‘zbekiston qazishmalari) qo‘llagan. Rtveladze bu manbalarni tanqidiy tahlil qilgan: u ularning arab manbalariga (Tabariy, Ibn al-Asir) asoslanganligini ta'kidlab, g‘arbiy olimlarning "arab bosqinlari halokatli bo‘lgan" degan fikrlarini yumshatgan va mahalliy madaniyatning

chidamliligini (islomlashuv jarayoni, yangi shaharlar shakllanishi) arxeologik dalillar bilan isbotlagan.

O‘zbek olimlaridan Shamsiddin Sirodjiddinovich Kamoliddinov— tarix fanlari doktori, professor, Markaziy Osiyo (ayniqsa Movarounnahr) tarixi, tarixiy geografiyasi, arab tilidagi manbalar va Samoniylar davri bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri.

Uning ilmiy ishlari arab, fors va boshqa o‘rta asr manbalarini chuqur tahlil qilishga asoslangan bo‘lib, Movarounnahrning (Transoksiana) tarixiy geografiyasi, etnik tarixi, toponimikasi va xalifalik siyosatini o‘rganishda muhim hissa qo‘shgan.Olim o‘z asarlari va tarixiy tarjimashunoslik ishlari orqali Movarounnahr tarixiy geografiyasini arabiy manbalar asosida tadqiq etgan holda xalifalikning mintaqada yuritgan siyosatiga doir muhim ilmiy xulosalarni ilgari surgan.[4]

Uning Academia.edu profilidagi inglizcha maqolalari masalan, "The Samanids. The First Local Islamic Dynasty of Central Asia"(2011) maqolasi ham asosan arab va fors manbalariga tayanadi, inglizcha tadqiqotlar esa faqat umumiy mulohaza uchun ishlatiladi.

Kamoliddinovning ishlari arab manbalarining o‘zini o‘qish va tahlil qilishga qurilgan bo‘lib, ingliz tilidagi zamonaviy tadqiqotlar H.Gibb,E.Daniel, Kennedy va boshqalar asarlaridan ilmiy tahlil uchun foydalangan. U o‘zining ilmiy maktabini arabshunoslik va tarixiy geografiya rivojlantirishga e’tibor qaratgan.

Bu haqida A.Ungalov “Movarounnahrda arab xalifaligi hukmronligining uzil-kesil o‘rnatilishi(715-751yy)”ilmiy taqdqiqotida aytib o‘tadi.Shuningdek, H.Mamadaliyev ham Movarounnahrdagi xalifalik davridagi etnik holatni tadqiq etgan holda, xalifalikning mintaqani bosib olishiga o‘z e’tiborini qaratgan.[5]

Movarounnahrni Arab xalifaligi tomonidan egallanganligi va islomlashtirish siyosati masalalari sug‘dshunos olimlar tomonidan ham anchayin o‘rganilgan. Jumladan, M.Ishoqov o‘zining “Sug‘diyona tarix chorrahasida” nomli kitobida ingliz tilli tadqiqotlardan foydalangan.Kitob Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlarining tarjima va tarixiy tahliliga bag‘ishlangan qisqacha risoladir. Bu hujjatlar aynan arablarning Markaziy Osiyoga (Sug‘diyonaga) bostirib kirishi davriga VIII asr boshi, Devashtich davri va qarshilik harakatiga tegishli bo‘lib, arab istilosiga qarshi kurash, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning asosiy manbasi hisoblanadi.[6]

2000 yilda chop etilgan “Qadimgi yozma yodgorliklar” nomli monografiyasida M. Ishoqov sug‘diy yozma yodgorliklarda ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo va unga tutash hududlar tarixining muhim jarayonlari aks etgani, ayniqsa, Arab xalifaligiga qarshi kurashdagi hamkorlik va hujjatlardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, iqtisodiy-huquqiy masalalar tarixi tarixiy tadqiqotlar uchun muhim hisoblanadi. O‘z davrida ingliz tilli tadqiqotchilardan V.B. Xenning, N. Sims-Vilyams, F. Grene kabi olimlar ham sug‘diy yozma yodgorliklarning tarixiy talqini yakuniga yetmaganligini o‘z tadqiqotlarida keltirib o‘tishgani haqida ma`lumot berib o‘tadi.[7]

M.Ishoqov o‘z kitobida V.B.Henningning “Qadimiy xatlar” (Ancient Letters) sanasini 307–312 yillar deb belgilashini to‘g‘ri deb qabul qiladi,lekin olim Harmattaning fikrini rad etadi.

Markaziy Osiyoga arablar bosqini haqida o‘z tadqiqotida ma`lumot berib o‘tgan olim

B.G‘oyibov o‘zining “Sug‘d konfederatsiyasi: shakllanishi, taraqqiyoti va tanazzuli” (Toshkent, 2015) monografiyasida Sug‘d davlatchiligining tanazzulga uchrashida arablar bosqini hal qiluvchi rol o‘ynaganini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi VIII asrning ilk choragida sodir bo‘lgan ushbu jarayonni quyidagicha tahlil qiladi. Arablar bosqini natijasida Sug‘d konfederatsiyasi ichidagi ichki ziddiyatlar keskinlashgan. Hukmdorlar G‘urak va Devashtich o‘rtasidagi raqobat aynan shu davrda avj olib, konfederatsiyaning zaiflashuviga olib kelgan. 751 yildagi Talas jangi Movarounnahr taqdirini hal qilgan muhim to‘qnashuv bo‘lib, ushbu jarayonda Sug‘d konfederatsiyasi butunlay tanazzulga uchragan. Tadqiqotda soliq siyosati, madaniy o‘zgarishlar va xalqaro munosabatlar singari omillar tanazzulning asosiy sabablari sifatida ko‘rsatilgan deb aytib o‘tadi.[8]

A.Otaxo‘jayev, A.Malikov, B.G‘oyibov, turkshunos numizmat G‘.Boboyorov ishlarida ham Sug‘d tarixi va turk-sug‘d munosabatlarini o‘rganish asnosida xalifalikning Movarounnahrdagi siyosati tahlil qilingan.

Bu davr bo‘yichi ilmiy taqdqiqot olib borgan U.Xalmuminov o‘zining tadqiqot ishida ingliz tilli ilmiy ishlardan foydalanib K.E.Bosvortning Farg‘onadagi Ixshidiylar sulolasi, “ixshid” unvoning kelib chiqishi borasida to‘xtalib o‘tar ekan, ushbu tadqiqotiga X asrda yashagan Abu Abdulloh Muhammad al-Xorazmiyning arab tilida yozilgan “Mafotih al-ulum” (“Ilmlar kaliti”) asaridan olganligini izohlaydi.[9]

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda Markaziy Osiyo tarixida Arab xalifaligi istilosi davri chuqur iz qoldirgan bosqichlardan biridir. VIII asrda boshlangan bu istilolar mintaqaning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va dini hayotini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu davr nafaqat mahalliy, balki xalqaro tarixshunoslikda ham muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyodagi arab istilosining turli jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertatsiyada ingliz tilidagi tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi tomonidan uyushtirilgan istilolar tarixiga oid yondashuvlar tahlil qilinadi.

Markaziy Osiyo tarixida Arab xalifaligi istilosi davri chuqur iz qoldirgan bosqichlardan biridir. VIII asrda boshlangan bu istilolar mintaqaning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va dini hayotini tubdan o‘zgartirdi. Ushbu davr nafaqat mahalliy, balki xalqaro tarixshunoslikda ham muhim tadqiqot mavzusi bo‘lib kelmoqda. Ayniqsa, ingliz tilida olib borilgan tadqiqotlar Markaziy Osiyodagi arab istilosining turli jihatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu dissertatsiyada ingliz tilidagi tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi tomonidan uyushtirilgan istilolar tarixiga oid yondashuvlar tahlil qilinadi.

XVIII-XIX asrlar mobaynida Arab xalifaligining Markaziy Osiyoga bostirib kirishi to‘g‘risida o‘z tadqiqotlari orqali ma’lumot berib o‘tgan ingliz sharqshunoslarining asarlarini jahonda o‘rganishda nemis,fransuz,turkiya orientalistika maktablari o‘rni kattadir.Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlar hozirgi kunda asosiy manbalardan biri sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. unesdoc.unesco.org
2. grijalvo.com/Edvard_Rtveladze/Uzbekistan_Spain__Historical_cultural_contacts

3. legacy.uz/en/in-memory-of-edward-vasilievich-rtveladze
4. Камалиддинов Ш.С. Новые данные о потомках царя Согда Гурака // ОНУ. – 2003. – №3. – С. 15. Ўша муаллиф. Из истории арабских завоеваний в Средней Азии: к биографии Сулеймана ибн Абу-с-Сари / Цивилизация скотоводов и земледельцев Центральной Азии. – Самарканд-Бишкек: МИЦАИ, 2005. – С. 203- 209; Ўша муаллиф. Последний ихшид Согда Тургар в письменных источниких // Марказий Осиё халқлари тарихи манбашунослиги ва тарихшунослиги масалалари. 4. – Тошкент: 2012. – Б. 103; Ўша муаллиф. Исследования по истории Средней Азии // Эпоха арабских завоеваний и раннего ислама. – Saarbrucken: LAMBERT Academic Publishing, 2014. – С. 37-45, 65-73, 107-117; Камалиддинов Ш.С., Мухаммедов У.З. Новые данные по истории Средней Азии в эпоху арабских завоеваний// ОНУ. – 1997. – №3-4. – С. 91-95;
5. Мамадалиев Х.М. Этническое положение в Средней Азии в IX-XII вв. (на основе материалов арабоязычных источников): Автореф. дисс. на соиск. учен. степ. канд. ист. наук. – Ташкент: 2010. – 28 с.
6. ТЕРАН БИЛИМЛИ ВА БАҒРИКЕНГ ОЛИМ. – Тошкент давлат шарқшунослик университети Кенгашининг 2022 йил 29 декабрдаги 5-сонли мажлис қарори билан чоп этишга тавсия этилган.
7. O‘sha asar -.P.18
8. Гойибов, Б. С. Из истории арабских завоеваний в Согде: к биографии Деваштича, сына Йодахшитака / Б. С. Гойибов. — Текст : непосредственный // Вопросы исторической науки : материалы III Междунар. науч. конф. (г. Москва, январь 2015 г.). — Москва : Буки-Веди, 2015. — С. 51-54.
9. Bosworth C.E., Clauson G. Al-Xwārazmī on the Peoples of Central Asia// JRAS, 1965. No. 1/2. – P. 6-7